

Date: 9th May-2026

QANDLI DIABET BEMORLARIDA OFTALMOLOGIK PATOLOGIYALAR

Bahriyev Aslbek G'iyosiddin o'g'li
Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti



Dolzarbligi. Qandli diabet — eng ko'p uchraydigan endokrin kasalliklardan biri bo'lib, ko'zda turli patologiyalarni keltirib chiqaradi.[1] Diabetik retinopatiya, makulyar shish, glaukoma va katarakta bemorlarda ko'rish qobiliyatining pasayishi va nogironlikning asosiy sabablaridan hisoblanadi.[2] Kasallik davomiyligi ortishi bilan retinopatiya va boshqa oftalmologik asoratlar uchrash chastotasi sezilarli darajada oshadi. Shu bois diabetli bemorlarda muntazam oftalmologik skrining va erta tashxis dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.[3] Qandli diabet bilan og'riqan bemorlarda oftalmologik patologiyalarni aniqlash, kasallik davomiyligi bilan diabetik retinopatiya uchrash chastotasi o'rtasidagi bog'liqlikni baholash va erta diagnostika orqali og'ir asoratlarning oldini olishga qaratilgan individual davolash strategiyalarini ishlab chiqish.

Maqsad. Qandli diabet bilan og'riqan bemorlarda oftalmologik patologiyalarni aniqlash, kasallik davomiyligi bilan diabetik retinopatiya uchrash chastotasi o'rtasidagi bog'liqlikni baholash va erta diagnostika orqali og'ir asoratlarning oldini olish.

Material va metodlar. 2024–2025-yillarda 120 nafar 2-tur qandli diabet bilan og'riqan bemor (67 ayol, 53 erkak; o'rtacha yosh $59,2 \pm 8,4$ yil) tekshirildi. Bemorlar kasallik davomiyligiga ko'ra 3 guruhga ajratildi: 5–10 yil ($n=38$), 10–15 yil ($n=44$) va ≥ 15 yil ($n=38$). Oftalmologik tekshiruvlar vizometriya, Goldmann tonometriyasi, biomikroskopiya, oftalmoskopiya, optik koherent tomografiya (OCT) va fluoressein angiografiya yordamida amalga oshirildi. Ushbu metodlar amaliyotda keng qo'llaniladigan diagnostika vositalari hisoblanadi. Diabetik retinopatiya darajasi ETDRS tasnifi asosida baholandi.

Natijalar. Bemorlarning 78,3% ($n=94$) da diabetik retinopatiya aniqlandi. No-proliferativ retinopatiya 52,5% ($n=63$), proliferativ retinopatiya 18,3% ($n=22$), diabetik makulyar shish 24,1% ($n=29$) holatlarda kuzatildi. Kasallik davomiyligi bilan retinopatiya uchrash chastotasi o'rtasida kuchli musbat bog'liqlik aniqlandi. ≥ 15 yil davomiylik guruhida proliferativ retinopatiya 31,6% ni tashkil etdi. HbA1c $>7\%$ bo'lganlarda makulyar shish rivojlanish xavfi yuqori bo'ldi.

Xulosa. Qandli diabet bilan og'riqan bemorlarda oftalmologik patologiyalar yuqori uchrash ko'rsatkichiga ega bo'lib, kasallik davomiyligi va glyukemik nazorat darajasi bilan uzviy bog'liqdir. Erta skrining, muntazam oftalmologik tekshiruv va metabolik nazoratni optimallashtirish og'ir asoratlarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

MANBALAR:

1. Normatova N., Ibragimova N. Frequency of occurrence and factors of diabetic retinopathy advancement in people with DM type 2 in Uzbekistan. Endocrine Abstracts, 2016

Date: 9thMay-2026

2. Djamalova Sh.A., Nabiyeu A.M. Ophthalmologic complications of diabetes mellitus and their prevention strategies. European Science Review, 2015
3. Iskandarova Sh.T. Clinical features of diabetic macular edema and cataract in Uzbekistan. Med-click, 2015



International Conferences
Open Access | Scientific Online | Conference Proceedings

